



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



OILA ICHIDAGI ZO‘RAVONLIK VA JINOYAT KODEksi: OILA ICHIDAGI ZO‘RAVONLIKKA OID JINOYATLAR VA ULARNI JAZOLASH MEXANIZMLARI.

Salimjonova Sevinch Ravil qizi

Toshkent davlat transport universiteti iqtisodiyot fakulteti

yurisprudensiya yo‘nalishi YU-8A guruh talabasi

Telefon nomer: +998771414012

Elektron pochta:

sevinchsalimjonova71@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila ichidagi zo‘ravonlik tushunchasi, uning turlari, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ushbu masalaga oid normalar va jazolash mexanizmlari tahlil qilinadi. Oila ichidagi zo‘ravonlikning ijtimoiy va psixologik oqibatlari, statistik ko‘rsatkichlar, xalqaro tajribalar va misollar bilan yoritiladi. Shuningdek, mavjud qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan. Maqola davlat organlari, huquq-tartibot idoralari va nodavlat tashkilotlar tomonidan zo‘ravonlikka qarshi kurashda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Kalit so`zlar: jinoyat kodeksi, O‘zbekiston, oilaviy zo‘ravonlik, normalar, jazolash, jamiyat, xalqaro hamkorlik, mexanizm.

Abstract: This article analyzes the concept of domestic violence, its types, the norms and punishment mechanisms related to this issue in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The social and psychological consequences of domestic violence are highlighted with statistical indicators, international experience and examples. Recommendations are also given to improve the existing legislation. The article is intended for use by state bodies, law enforcement agencies and non-governmental organizations in the fight against violence.

Keywords: criminal code, Uzbekistan, domestic violence, norms, punishment, society, international cooperation, mechanism

Аннотация: В статье анализируется понятие домашнего насилия в Уголовном кодексе Республики Узбекистан, его виды, нормы и механизмы наказания, связанные с данным вопросом. Социально-психологические последствия домашнего насилия иллюстрируются с использованием статистических показателей, международного опыта и примеров. Также были даны рекомендации по совершенствованию действующего законодательства. Данная статья предназначена для использования государственными органами, правоохранительными органами и неправительственными организациями в целях борьбы с насилием.

Ключевые слова: Уголовный кодекс, Узбекистан, домашнее насилие, нормы, наказание, общество, международное сотрудничество, механизм

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, uning mustahkamligi jamiyat barqarorligiga ta’sir qiladi. Ammo afsuski, ba‘zi oilalarda zo‘ravonlik holatlari uchrab turadi. Oila ichidagi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



zo‘ravonlik faqat jismoniy tahdid emas, balki psixologik, iqtisodiy va jinsiy zo‘ravonlikni ham o‘z ichiga oladi. Bu nafaqat jabrlanuvchilarning, balki butun jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli, oila ichidagi zo‘ravonlikka oid jinoyatlar va ularni jazolash mexanizmlarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Aslini olganda, oila ichidagi zo‘ravonlik - bu bir oilada yashovchi yoki yaqin qarindoshlar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday shakldagi tajovuzkorlik yoki kuch ishlatishtir. BMT tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarga ko‘ra, oila ichidagi zo‘ravonlik qator turlarga bo‘linadi. Misol uchun, jismoniy zo‘ravonlik (urish, kaltaklash, shikast yetkazish), psixologik zo‘ravonlik (haqorat qilish, qo‘rqitish, ruhiy bosim o‘tkazish), iqtisodiy zo‘ravonlik: moddiy ta’minotni cheklash, iqtisodiy erkinlikni cheklash) va jinsiy zo‘ravonlik (majburiy jinsiy aloqalar, jinsiy tajovuz) kiradi.

Dunyo bo‘ylab har uchinchi ayol oila ichidagi zo‘ravonlik qurboni bo‘lishi haqida ma’lumotlar bor. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining so‘nggi yillarda e’lon qilgan ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda oila ichidagi zo‘ravonlikka oid murojaatlar soni oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi oila ichidagi zo‘ravonlikka oid bir qator moddalarga ega. Masalan: 104-modda (qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish), 109-modda (qasddan badanga yengil shikast yetkazish), 121-modda (majburiy jinsiy aloqa) , 137-modda (voyaga yetmaganlarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf solish) va boshqalar. Mazkur moddalarning har biri oila a’zolariga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga aytish joizki, oila ichidagi zo‘ravonlikning ijtimoiy oqibatlari ham mavjud bo`lib, oilalarning buzilishi, bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sir qilishi va zo‘ravonlik madaniyatining avloddan-avlodga o‘tishi. Zo‘ravonlik qurbonlari ko‘pincha depressiya, xavotir va posttravmatik stress sindromidan aziyat chekadi. Bolalar esa zo‘ravonlik muhitida o‘sib, tajovuzkor yoki ruhiy zaif bo‘lib ulg‘ayishi mumkin.

Mamlakatlarda oila ichidagi zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘yicha turli tajribalar mavjud. Masalan: Turkiyada "Zo‘ravonlikka qarshi oila" qonuni qabul qilingan. Shvetsiyada zo‘ravonlikka qarshi maxsus himoya markazlari tashkil etilgan. Bundan tashqari Hindistonda zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollar uchun bepul yuridik yordam beriladi. O‘zbekistonda 2019-yilda "Ayollarni himoya qilish to‘g‘risida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonun doirasida zo‘ravonlikka uchragan ayollarga vaqtinchalik boshpana va yordam ko‘rsatish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Bu qonun doirasida oila ichidagi zo‘ravonlikka oid jinoyatlar uchun qattiq jazolar belgilangan va jabrlanuvchilarga yordam berish uchun maxsus markazlar tashkil etilgan. Shuningdek, Yevropa davlatlarida ham oila ichidagi zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha turli dasturlar ishlab chiqilgan. Masalan, Ispaniyada "Oila ichidagi zo‘ravonlikka qarshi kurash" dasturi doirasida oila a’zolariga psixologik yordam ko‘rsatish va reabilitatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda ham oila ichidagi zo‘ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020 yilda qabul qilingan "Oila davrasida zo‘ravonlikni oldini olish to‘g‘risida"gi qonun, oila ichidagi zo‘ravonlikka qarshi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



kurashish uchun yangi mexanizmlar yaratdi. Ushbu qonun doirasida jabrlanuvchilarga yordam berish, ularni himoya qilish va reabilitatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Shuningdek, davlat organlari, huquq-tartibot idoralari va nodavlat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslar mavjud.

Xulosa tariqasida, oila ichidagi zo‘ravonlik – bu jiddiy ijtimoiy muammo bo‘lib, uning oqibatlari nafaqat jabrlanuvchilar, balki butun jamiyat uchun xavfli hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida oila ichidagi zo‘ravonlikka oid normalar va jazolash mexanizmlari mavjud bo‘lishiga qaramay, bu masala hali ham dolzarbdir. Oila ichidagi zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish uchun ijtimoiy ongi oshirish, ta’lim berish va jamiyatda sog‘lom oilalarni yaratish zarurati ortib bormoqda. Xalqaro tajribalar va O‘zbekistondagi islohotlar oila ichidagi zo‘ravonlikka qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish zarur. Oila ichidagi zo‘ravonlikka qarshi kurash – bu faqat qonunlar bilan emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari bilan ham bog‘liq masala bo‘lib qolmoqda. Har bir shaxs oila ichidagi zo‘ravonlikka nisbatan befarq bo‘lmasligi kerak, chunki bu masala har birimizning hayotimizga ta’sir qiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun qonunchilikni takomillashtirish, jamiyatdagi stereotiplarni o‘zgartirish va xalqaro tajribalarni joriy etish lozim. Faqat shunda oila mustahkamligi va jamiyat barqarorligini ta’minalash mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. (2017). Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
2. Oila davrasida zo‘ravonlikni oldini olish to‘g‘risida qonun. (2020). Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
3. United Nations. (2015). The Sustainable Development Goals Report 2015. New York: United Nations.
4. European Institute for Gender Equality. (2019). Violence against women: An EU-wide survey. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
5. Ispaniya hukumati. (2021). Oila ichidagi zo‘ravonlikka qarshi kurash dasturi. Madrid: Ispaniya Hukumati.
6. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi. (2021). Oila ichidagi zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘yicha hisobot. Tashkent: Bosh prokuratura.

